“TASDIQLAYMAN”
Oriental universiteti rektori
_____ N. Mamataxunov
2024-yil “24” 12

“TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH”
BO‘LIM NIZOMI

TOSHKENT – 2024

Oriental universiteti
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi to'g'risidagi
NIZOM

Oriental universiteti tarkibidagi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida'gi 515-son qarorining 14-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 30-avgustdagi "Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlash va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish to'g'risidagi 101-XDFU- son buyrug'iga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, bevosita oliy ta'lim muassasasi tarkibiga kiradi.

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Oriental universiteti tarkibidagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi maqomi, asosiy maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Oriental universiteti tarkibidagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi (keyingi o'rinlarda matnda – Bo'lim deb yuritiladi) Oriental universiteti (keyingi o'rinlarda matnda – universitet deb yuritiladi) tuzilmasiga kiradi.

3. Bo'lim nizomi mazkur Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda matnda – Boshqarma deb yuritiladi) bilan kelishilgan holda universiteti rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan universiteti bo'limining Nizomi bo'lim xodimlari tomonidan o'ziga yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

4. Bo'limning asosiy maqsadi universiteti talabalari bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganib borish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish, universitetini ichki attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va uning natijalari bo'yicha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish va oldini olish choralarini ko'rishdan iborat.

5. Bo'limning boshlig'i Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda universitet rektori buyrug'i orqali lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri hamda Universitet rektorining buyruqlari va qonuniy ko‘rsatmalariga, shuningdek bo‘lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq olib boradi.

7. Bo‘lim amalga oshirilgan ishlar, muammolar va kamchiliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muntazam ravishda Universitet rektoriga hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etadi.

II-bob. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari

8. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning davlat ta’lim standartlari (DTS), malaka talablari, tayanch o‘quv rejalari va ishchi o‘quv rejalari, fan dasturlari va fanning sillabus(ishchi dastur)lari bilan ta’minlanganligini hamda o‘zaro muvofiqligini tahlil etish;

universitetda ta’lim jarayoni sifatini, uning o‘quv adabiyotlari va o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlanganlik darajasini o‘rganish;

talabalar bilimini baholash jarayonlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish;

talabalar bilimini baholash jarayonlari va natijalarining xolisligi hamda shaffofligini o‘rganish;

talabalar bilimini tanlanma asosida aniqlash uchun qo‘shimcha ravishda nazorat ishlarini o‘tkazish (mazkur nazorat natijasi talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichida aks etmaydi), natijalarni tahlil qilish, ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlash jarayonlarini tashkillashtirish;

o‘quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o‘rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);

har bir fan bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini tahlil qilish va universitet rektoriga ma’lumotlar berib borish;

talabalar davomati va professor-o‘qituvchilarning darsga munosabatini monitoringini olib borish;

baholash natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar tayyorlash va ularning natijalari yuzasidan universitet kengashida hamda rektor yig‘ilishida hisobotlar berib borish;

bitiruvchilarning bilim darajasini o‘rganish maqsadida yakuniy davlat attestasiyasi komissiyalari hujjatlari bilan tanishish;

tashkiliy-huquqiy va metodik ko‘rsatmalar asosida ta’lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini olib borish va nazorat etishni tashkil etish;

kadrlar kasbiy mahorati, malakasi, ta'lim-tarbiya jarayonini bilish darajasini aniqlash maqsadida ularni ishga qabul qilishda suhbatdan o'tkazish;

universitetni ichki attestasiyadan o'tkazishni tashkil etish va ichki attestasiya natijalarini, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni universitet rektoriga hamda Boshqarmaga taqdim etish;

ta'lim sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarning holatini monitoring qilish va aniqlangan muammolar hamda kamchiliklar yuzasidan universitet rektoriga takliflar berish;

ta'lim sifatini oshirish maqsadida professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida zamonaviy usullar va uslublardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

universitetning tarkibiy tuzilmalarida (fakultet, kafedra, bo'lim, markaz) pedagog xodimlarning kasbiy malakasi holatini, shuningdek oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlaridagi sifat darajasini aniqlash maqsadida ichki monitoringni o'tkazish, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha universitet rahbariyatiga takliflar kiritish;

universitet professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish va ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni universitet rektoriga ma'lum qilish;

ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasi holatini tahlil qilish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

universitetda talabalar amaliyotining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olingan holda tashkil etilganligini va uning samarasini nazorat qilish;

universitet reytingini aniqlash, baholash, attestasiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish;

universitetdagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

universitetdagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini o'rganish maqsadida professor-o'qituvchilar va kadrlar iste'molchilari o'rtasida o'tkaziladigan ijtimoiy so'rovlar jarayonida ishtirok etish, natijalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

bitiruvchilarning ta'limni keyingi bosqichiga o'qishga kirishi yoki ishga joylashishlarini tahlil qilishda ishtirok etish;

respublika va xorijiy davlatlardagi ta'lim sifatini nazorat qilishga oid yangiliklarni doimiy o'rganib borish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

universitet reytingini xalqaro darajaga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni universitet rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish;

universitet tegishli tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv seminarlari va treninglarni o'tkazish;

universitetda ichki jamoatchi ekspertlar bazasini shakllantirish va ular bilan qo'yilgan vazifalar doirasida seminar mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazib borish;

o'quv jarayoni bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi integrasion hamkorlik, innovasion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni kengaytirish yuzasidan takliflarni berib borish;

universitet Kengashida, davra suhbatlari va anjumanlarda bo'lim tomonidan ta'lim sifatini oshirishga oid amalga oshirilgan o'rganish va monitoring natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borish;

ta'lim sifati holatini o'rganish natijalariga asoslanib tegishli takliflarni universitet rahbariyatiga taqdim etish.

9. Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning davlat ta'lim standartlari (DTS), malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlari bilan ta'minlanganligini tizimli tahlil qiladi;

asosiy faoliyatini belgilangan mezonlar asosida ta'lim sifatini o'rganishga, natijalarni tahlil qilishga qaratadi va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklarning normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanganligini o'rganadi;

talabalarning darslik va o'quv qo'llanmalari (shu jumladan, elektron darslik va o'quv qo'llanmalar) bilan ta'minlanganlik darajasini va zamonaviy talablarga mosligini ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar hamda tillar kesimida tahlil qiladi;

universitet professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish yoki ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganadi va ma'lumotlarni tegishli chora-tadbirlar belgilash uchun universitet rektoriga taqdim etadi;

o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish holatini o‘rganadi va ularni takomillashtirish bo‘yicha tegishli takliflarni universitet rektoriga taqdim etadi;

ilmiy-tadqiqot ishlarining iste’molchilar talablaridan kelib chiqqan holda olib borilayotganligini, universitet professor-o‘qituvchilari va talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlaridagi (fundamental, amaliy, innovasion va h.k. tadqiqotlar kesimida) ishtirokini, ilmiy ishlarning ishlab chiqarishga tatbig‘ini moliyalashtirish manbalari holatlari bo‘yicha o‘rganadi;

universitet tarkibiy tuzilmalarining zamonaviy moddiy-texnik ta’minoti, o‘quv-laboratoriya jihozlari, kompyuterlar bilan ta’minlanganigi va ulardan samarali foydalanilish darajasini tahlil qiladi;

ta’limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integrasiyasini, universitetning kadrlar tayyorlash va hamkorlikda ilmiy texnologik yechimlar yaratishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini, innovasion g‘oyalar, ishlanma va texnologiyalarni jalb etilishini (samarali yoki samarasizligini) o‘rganadi;

pedagog kadrlarning bevosita ishlab chiqarishda malakasi oshirilishini (muntazam yoki muntazam emasligi) hamda ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha iste’molchilar bozorining o‘rganilganligini (marketing xizmati ma’lumotlari asosida) tahlil qiladi;

ta’lim jarayoniga ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari hamda xorijiy davlatlar malakali mutaxassislarining jalb etilishini o‘rganadi;

ta’lim va kadrlar tayyorlash sifati muammolari bo‘yicha xalqaro konferensiyalar, anjumanlar, simpoziumlar, seminar va o‘quv jarayonlarida ishtirok etadi;

talabalar bajarayotgan bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertasiyasi mavzularining dolzarbligi, sifati va ularni ishlab chiqarishga qay darajada joriy qilinganligini o‘rganadi;

universitetning tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil tadqiqotchi bosqichlari orqali oliy malakali kadrlar tayyorlash faoliyatini tahlil qiladi;

universitetda ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi, mazmuni va uning bajarilishini (bayonnomalar asosida), professor-o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlarga jalb etilganligini, ta’lim muassasasidagi ma’naviy-ijtimoiy muhitni, pedagog xodimlarning axloqiy sifatlarini (so‘rovnoma asosida) o‘rganadi;

universitet axborot-resurs markazi fondining zarur adabiyotlar bilan ta’minlanganligini, ulardan foydalanayotgan professor-o‘qituvchilar va talabalar salmog‘ini aniqlaydi;

professor-o‘qituvchilar reytingini aniqlashda ishtirok etadi;

talabalar bilimini baholash bo‘yicha nazorat natijalarini tanlama tahlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini va shaffofligini o‘rganadi va takliflar tayyorlaydi;

yakuniy davlat attestasiyalarini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilgan holda o‘tkazilganligini va uning natijalarini tahlil qiladi;

universitetning tarkibiy tuzilmalarida (fakultet, kafedra, bo‘lim, markaz) pedagog xodimlarning kasbiy malakasi holatini, shuningdek oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo‘nalishlaridagi sifat darajasini aniqlash jarayoni va tahliliy ma’lumotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

universitetda kadrlar tayyorlash sifati va talabalar bilim darajasini aniqlash maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o‘qituvchi va kadrlar iste’molchilari o‘rtasida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazadi;

universitetda xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligini, xorijiy mamlakatlar bilan shartnoma asosida talaba, tayanch doktorant, doktorant, ilmiy xodimlar almashinuvini, fan sohasida xalqaro ilmiy tadbirlarning tashkil etilishini (seminar, anjuman, simpozium va h.k.), chet el grantlari asosida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini, xorijiy investisiyalarning jalb qilinishini tahlil qiladi va bu sohani rivojlanishiga takliflar beradi;

bo‘lim xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umid” jamg‘armasi yoki xalqaro loyihalar va institut hisobidan rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli o‘quv va ilmiy markazlari tajribasini o‘rganadi va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etadi;

Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan OTMlar reytingini aniqlash va baholashga oid ma’lumotlarni to‘plashda hamda boshqa topshiriq va vazifalarni bajarishda ishtirok etadi;

universitet reytingini xalqaro darajaga ko‘tarish uchun tajribali professor-o‘qituvchilar va yosh mutaxassislarni chet el tajribasini o‘rganish maqsadida xizmat safariga yuborish va ularning natijasini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda iuniversitet rahbariyati bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi;

respublikada va xorijiy davlatlardagi ta’lim sifatini nazorat qilishga oid yangiliklarni doimiy o‘rganib boradi va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

universitetda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha olib borilgan o‘rganishlar natijalari asosidagi takliflarni Davlat inspeksiyasiga va universitet rektoriga taqdim etadi.

III-bob. Bo‘limning huquq va majburiyatlari

10. Bo‘lim quyidagi huquqlarga ega:

Bo‘lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun universitet tarkibiy tuzilmalaridan zarur ma’lumotlar va materiallarni olish;

universitetda attestasiya jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish;

universitetda ta’lim sifatiga oid qabul qilingan qarorlarning yetarli darajada ijrosi ta’minlanmaganligi aniqlanganda, ma’lumotlarni universitet rektoriga kiritish;

belgilangan tartibda universitet Kengashiga saylash va saylanish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

11. Bo‘lim quyidagi majburiyatlarga ega:

xizmat vazifalarini vijdonan bajaradi;

universitet rektori va Boshqarmaga taqdim etiladigan ma’lumotlarning haqqoniyligiga javob beradi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 yanvardagi 12-sonli “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ijro intizomiga, o‘quv va mehnat intizomiga, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalar, universitetning ustavi, ichki tartib hamda odob-ahloq qoidalariga rioya etadi.

IV-bob. Bo‘lim ishini tashkil etish

13. Bo‘lim universitet tarkibida ularning belgilangan shtatlari doirasida universitet rektori buyrug‘iga muvofiq tashkil etiladi.

Bo‘lim yuridik shaxs maqomiga ega emas.

14. Bo‘lim 3 nafar xodim: bo‘lim boshlig‘i va ikki nafar bosh mutaxassisdan iborat.

15. Bo‘lim boshlig‘i va bosh mutaxassislari universitet rektori buyrug‘iga asosan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

16. Bo‘lim xodimlarining oylik ish haqi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga *(O‘zbekiston Respublikasi QT, 2008 y., 8-son, 40-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 33-son, 852-modda)* muvofiq belgilanadi va universitet tomonidan to‘lanadi. Bo‘lim xodimlariga universitet xodimlari lavozimlari uchun belgilangan moddiy rag‘batlantirish shartlari qo‘llaniladi.

17. Bo‘lim faoliyatiga bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

Bo‘lim boshlig‘ining lavozimi, dekan lavozimiga tenglashtiriladi.

Bo‘lim boshlig‘i bo‘lmagan (ta’til, betoblik, xizmat safari) davrda uning vazifasini bajarish rektor tomonidan bo‘limning bosh mutaxassislaridan biriga yuklatiladi.

18. Bo‘limga ta’lim sifatini nazorat qilish sohasida amaliy-metodik ish tajribasiga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar, shuningdek, ilmiy-pedagogik stajga ega bo‘lga shaxslar tarkibidan malakaviy talablarga muvofiq belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi.

V-bob. Bo‘lim xodimlarining malaka talablari

19. Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga qo‘yidagi malaka talablari qo‘yiladi:

oliy ma’lumotli, ilmiy darajaga yoki oliy ta’lim sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyati jihatidan) ega bo‘lishi;

ta’lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi;

ta’lim muassasalaridagi pedagogik va ta’lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta’lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo‘lishi;

universitetning tarkibiy bo‘linmalari faoliyati xususiyatlarini bilishi;

ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo‘lishi;

o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunishi;

institut professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini bilishi;

o‘zbek, rus tillarini va xorijiy tillardan birini mukammal bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);

ish faoliyatida zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

20. Bo‘lim boshlig‘ining asosiy funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

oliy ma’lumotli, ta’lim sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik jihatidan) ega bo‘lishi;

ta’lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi;

pedagogik va ta’lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta’lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo‘lishi;

ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo‘lishi;

o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini tushunishi, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tayyorlashga qo‘yilgan talablarni bilishi;

o‘zbek tilini mukammal, rus va xorijiy tillardan birini yetarli darajada bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);

ish jarayonida zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

VI-bob. Yakuniy qoidalar

20. Bo‘lim faoliyatiga oid nizolar, o‘zaro munozaralar olib borish orqali yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

21. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi 72-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomi asosida ishlab chiqildi va universitet Kengashining 2024 yil “24” dekabr “4” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

22. Mazkur Nizomni bekor qilish yoki unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish belgilangan tartibda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bilan kelishilgan holda universitet rektori buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.